

**Norbosheva Maqsuda Achilovna**

*psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

*Termiz davlat universiteti*

*E-mail: [maqsuda\\_pedagog@mail.ru](mailto:maqsuda_pedagog@mail.ru)*

## **МАКТАБГАЧА YOSH DAVRIDA MULOQOT FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH: PSIXODIAGNOSTIKA VA PSIXOKORREKSIYA**

### **Annotatsiya**

*Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot madaniyatini shakllantirish vazifalarini amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida o'yinni tanlash mohiyati shundaki, bolalar bilan ishlashda o'yin nafaqat universal, balki ularning rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga imkon beradigan maqbul vositaga aylanishiga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglar o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxs sifatida rivojlanishi xususiyatlarini chuqur va puxta bilishi va o'zlarining ta'lim-tarbiya faoliyatlarida ijodiy yondashgan holda samarali qo'llay olishlari lozim.*

**Kalit so'z:** maktabgacha, bola, shaxs, muloqot, oila, o'yin, tarbiyachi, pedagog, ijtimoiy, muhit.

## **РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНОМ ПЕРИОДЕ: ПСИХОДИАГНОСТИКА И ПСИХОКОРРЕКЦИЯ**

### **Аннотация**

*Суть выбора игры в качестве основного средства реализации задач формирования культуры общения дошкольников заключается в том, что игра является не только универсальным, но и допустимым средством, позволяющим воздействовать на их развитие во всех аспектах. В дошкольных образовательных организациях педагоги-педагогов должны обладать глубокими и всесторонними знаниями особенностей развития дошкольников как личностей в игровой среде и уметь эффективно использовать их в своей воспитательной деятельности с творческим подходом.*

**Ключевые слова:** дошкольник, ребенок, личность, общение, семья, игра, воспитатель, педагог, социальное, среда.

## **DEVELOPMENT OF COMMUNICATION ACTIVITY IN PRESCHOOL PERIOD: PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION**

### **Abstract**

*The essence of choosing a game as the main means of implementing the tasks of forming the communication culture of preschool children is that the game is not only universal, but also an acceptable tool that allows to influence their development in all aspects. In preschool educational organizations, teachers-pedagogues should have a deep and thorough knowledge of the characteristics of the development of preschool children as individuals in the game environment and be able to use them effectively in their educational activities with a creative approach.*

*Key words: preschool, child, person, communication, family, game, educator, pedagogue, social, environment.*

## **Kirish**

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Birinchidan, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi [1;1-b.]. Xitoy xalq maqolida: «Biz bir yilga rejalashtirganimizda, don sochamiz, o'n yilga rejalashtirganimizda, daraxt ekamiz, agar butun umrga rejalashtirsak, kishilarni o'qitamiz va tarbiyalaymiz», deyilgan. Demak, hozirgi davrda ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish uchun maktabgacha ta'limga e'tibor qaratish hayotiy zaruratga aylangan ekan, bola shaxsini rivojlantirishning qulay va ta'sirchan usullarini izlash, topish, qo'llash va ommalashtirish eng muhim masala hisoblanadi. Aslida ham, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hiech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi [2; 2-b.].

“Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolaning umumiy muhim kompetensiyalari qatorida “ijtimoiy kompetensiyani, ya'ni hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahoratini shakllantirish, vaziyatlardan chiqish, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rgatish muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Mazkur talabga muvofiq, tarbiyachi-pedagoglar barcha ta'lim va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishlari kerak bo'lgan eng muhim vazifa tarbiyachi ota-onalari yoki muassasaning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida bola to'g'risidagi ma'lumotlarni olish va shu asosida bolaning ijtimoiy-hissiy, muloqot kompetensiyalarining rivojlanishini kuzatib bormog'i lozim. Jumladan, tarbiyachi bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Maktabgacha yosh davrida muloqotning shakllanishi muammosi bo'yicha qator o'zbek, rus va xorij psixologlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, M.Sh.Rasulova, Sh.Do'stmuxamedova, R.I.Sunnatova, O'.B.Shamsiyev, L.Nazirova, Sh.D.Bekovalar tadqiqotlarida shaxs shakllanishida muloqotning o'rni, ijtimoiy muhit, oila va oilaviy munosabatlar, shaxsning ijtimoiylashuvi masalalari, shaxs xulq-atvori shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillar, shaxslararo munosabatlar ta'siri va kommunikativ qobiliyatlarning roli o'rganilgan.

Rossiyalik qator psixolog olimlar V.V.Davidov, D.B.Elkonin, B.G.Ananyev, L.S.Vigotskiy, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.V.Petrovskiy, A.A.Bodalev, L.I.Bojovich, V.S.Muxina, M.V.Gamezo, V.S.Gerasimova, L.M. Orlova, M.I.Lisina, A.G.Asmolov, T.A.Dumitrashku, G.B.Tagiyeva, A.I.Setinina,

A.D.Kosheleva, R.J.Muxamedraximovlar tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi psixik taraqqiyot davri bolada o'zligini anglash, ehtiyoj va motivlarni yuzaga kelishi va "Men" konsepsiyasi shakllanishining muhim bosqichi sifatida tadqiq etilgan.

Xorij psixologlaridan A.Maslov, I.Thompson, L.Harvey, V.Dammon, G.Krayg, Z.Fryeyd, K.A.Kerns, M.H.Mallars, A.Piz, J.Piajet kabi mutaxassislar ilmiy tadqiqotlarda bolaning tengdoshlari bilan munosabatlari muvaffaqiyati maktabgacha yoshda shaxs rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanishi va bevosita shaxs psixologik tuzilmalari: hissiyotlar, motivlar, o'z-o'zini anglash, shaxsiy faoliyat va tashabbuskorlikni shakllantirish muammolari o'rganilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotimizda tanlagan mavzumizning metodologik asosi sifatida chet el psixologlaridan A.Adler, J.Piaje, A.N.Masloularning oilaga oid ilgari surgan fikrlari va sobiq ittifoq psixologlaridan L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, A.V.Petrovskiy, L.I.Bojovich, D.B.Elkonin, I.V.Dubrovina va boshqalarning shaxs xususiyatlarining rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligi hamda tarbiyalanuvchilarning muloqot jarayonidagi shaxs xususiyatlarining shakllanishi haqidagi nazariy qarashlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Jahonda shaxsning shakllanishi, o'zini anglash muammolari falsafa va psixologiyaning turli yo'nalishlari vakillari asarlarida o'z aksini topgan bo'lib, bu qatorda Gegel, L.Feyerbax, U.Djems, K.Rodjers, A.Adler, E.Erikson, R.Berns, K.Xorni, Ye.Diksteyn, D.M.Bolduin, Ch.X.Kuli, D.G.Mid, I.S.Kon, A.N.Leontyev, S.R.Rubinshteyn, V.A.Petrovskiy M.Kun, T.Makpartlend, B.V.Zeygarnik, V.V.Stolin, A.A.Bodalev, A.B.Orlov, I.I.Chesnokova va boshqalarning ilmiy izlanishlarini ta'kidlash mumkin. Ularning har biri o'z asarlarida insonning o'z mohiyatiga kirib borish jarayonlari mexanizmini o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasi borasidagi ilgari surgan fikrlari va qarashlaridan ham qo'shimcha metodologik material sifatida foydalanildi.

### **Tahlil, natijalar va mulohazalar**

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi bu o'yin, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolaning muloqot madaniyatini samarali shakllantirishning asosiy usullaridan biri o'yin (o'yin faoliyati) bo'lishi kerak. Buning uchun turli rivojlantiruvchi faoliyat markazlarini (teatr va sahnalashtirish, badiiy adabiyot va nutq, qurilish va konstruktorlik o'yinlari, bilish va matematika) o'z ichiga olgan madaniy va o'yin maydonini yaratish kerak. Haqiqiy narsalar, o'yinchoqlar, atributlar, o'yin uskunalari, aralash buyumlari yordamida rivojlantiruvchi -o'yin muhitini yaratish lozim.

Maktabgacha yosh davrida o'yin kommunikativ kompetentlik-muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi rivojlanishi eng asosiy vositasi hisoblanadi. Ya'ni, o'yin jarayonidagi umumiy qiziqishlar, maqsadlar, vazifalar, hamkorlikdagi urinishlar tengdoshlar o'rtasida iliq munosabatlar kelib chiqishiga olib keladi. Shuningdek, muloqot madaniyatini shakllantirish uchun (uning tarkibiy qismlari) bolaning kundalik faoliyatida didaktik, rolli o'yinlar, ochiq o'yinlar, qoidali o'yinlar o'tkazish orqali kattalar va bolalar bilan birgalikdagi tadbirlarni tashkil etish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot madaniyatini shakllantirish vazifalarini amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida o'yinni tanlash mohiyati shundaki, bolalar bilan ishlashda o'yin nafaqat universal, balki ularning rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga imkon beradigan maqbul vositaga aylanishiga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglar o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxs sifatida rivojlanishi xususiyatlarini chuqur va puxta bilishi va o'zlarining ta'lim-tarbiya faoliyatlarida ijodiy yondashgan holda samarali qo'llay olishlari lozim.

Quyida esa, biz tomonimizdan to'plangan bolaning shaxs sifatida rivojlanishi va maktabgacha yosh davrida bolada muloqot madaniyati elementlarini tarkib toptirishni rivojlantiruvchi o'yinlar taklif etamiz. Mazkur ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi o'yin va mashqlar tizimi maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxs sifatlarini shakllantirishda muloqot imkoniyatlari: identifikasiya, empatiya, xayrixohlik, samimiylik darajasini kengaytirishga asoslangan.

**I Mashg'ulot. O'zini qabul qilishni rivojlantirish, muloqotda sherigini qabul qilish uchun o'yinlar.** "Kimman?", "Gapni to'ldiring", "Davra markazida", "Tabriklar va tilaklar", "Avtoportret", "Do'sting portreti"; "Sevimli ism", "Do'stingizni tasvirlab bering".

**Maqsad:** bolalarni boshqa odamning tashqi qiyofasi va individual xususiyatlariga e'tibor berishga o'rgatish, uni boricha qabul qilishga o'rgatish.

### **1.1-mashq. "Ko'zingiz bilan juftlikni toping" o'yini**

Bolalar juftlarga bo'linadi. Ular bir-birlariga orqa tomonlari bilan turadilar va navbat bilan bo'yining balandligi, yuzi, soch rangi, kiyimini tasvirlaydilar. Tarbiyachi esa, tasvirning to'g'riligiga e'tibor beradi. Ushbu o'yinlarning barchasi o'ziga va boshqalarga nisbatan xayrixohlikni shakllantiradi, boshqalarning ijobiy fazilatlarini sezishga va uni so'z bilan ifoda etishga, iltifot ko'rsatishga o'rgatadi.

**1.2-mashq. Hamdardlikni rivojlantirish uchun o'yinlar.** Bolaning o'zi va boshqa birovning hissiy holatini aniqlash, ushbu holatni ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan o'yinlar hisoblanadi. Bunga biz quyidagi o'yinlarni kiritdik: "Mehribon hayvon"; "Oyna"; "Maymunchalar va timsohlar"; "Ajdahoning ahil dumlari".

### **1.3-mashq. Tuyg'ularni ifodalash uchun turli xil o'yin-sayohatlar.**

#### **"Tuyg'ular hayvonot bog'i"**

Bitta bola tanlanadi - "hayvonot bog'iga tashrif buyuruvchi". Qolgan ishtirokchilarga hissiyotlarga ega rasmlar beriladi. "Hissiyotlar hayvonot bog'i"ga tashrif buyuruvchining vazifasi - boshqa ishtirokchilarning tasvirlangan his-tuyg'ularini taxmin qilishdir.

"Niqobsiz"; "Meni tushun"; "Baliq - qush - hayvon" (navbat bilan ular bitta hayvonni ma'lum tartibda chaqirishadi: baliq, qush, hayvon), bu o'yinni o'zgartirish mumkin, masalan, sabzavotlar - mevalar - rezavorlar, uy. yovvoyi hayvon; hayvon - qush va boshqalar.

"Ertak aytib berish"; "Hayvonlar jo'rliqi"; "Do'kon" (xaridor nimani sotib olmoqchi ekanligini aytmaydi, lekin ushbu buyumni tavsiflaydi) Bolalarning sevimli o'yinlaridan biri "Matbuot anjumani" (Taniqli odam bilan suhbat).

**1.4-mashq. O‘zaro ta’sirning muloqotsiz va mazmunli usullarini rivojlantirishga va tanadagi to‘siqlarni olib tashlashga yordam beradigan o‘yinlar.**

**"Piyola orqali suhbat"** (guruhga uning issiq ekanligini yetkazing, do‘stingizdan ichimlik olib kelishini so‘rang va hokazo). "Qo‘llar bir-birini taniydi, qo‘llar tortinadi, quvonadi, o‘ynaydi, tortishadi, yarashadi".

Bolalarga **muloqotda o‘zaro ta’sirni rivojlantirishga yordam beradigan o‘yinlar** sifatida quyidagilarni tanladik: "Ertak chizish", "Kim tashrif buyurdi", "Haykaltarosh va loy"; -"Kir yuvish mashinasi"; "Sehrli dengiz o‘tlari", "Buzuq telefon", "Kuraklarga rasm chizish" (juft bo‘lib o‘ynashi mumkin, yoki barchasi birgalikda o‘ynash mumkin).

**"She’rlarni qo‘llaringiz bilan ayting"**. "Qo‘l bilan o‘qish" yoki "butun vujud bilan" o‘qish mumkin bo‘lgan she’rlar tanlangan. Tarbiyachi she’r tinglashni taklif qiladi. Keyin u yana o‘qiydi va bolalar buni tana tili bilan aytib berishadi.

Muloqot madaniyatni shakllantirish uchun o‘yinlarning asosiy turlaridan biri bu birlashish, hamjihatlik tuyg‘usini shakllantiradigan, guruhning o‘zaro ta’sir o‘tkazish ko‘nikmalarini (jamoada harakat qilish qobiliyatini) rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlardir: -"Ko‘zi ojiz odam va yo‘riqnoma", "Yelim oqimi", "Qaysar bosh", "Sehrli halqa", "Omadli hisob", "Marionetka", "Halqa bo‘ylab yuring".

### **"Mo‘jizaviy xaltachadan hikoyalar"**

Maqsad: bolalarni birgalikdagi ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘zaro munosabatda bo‘lishga o‘rgatish.

Tarbiyachi qo‘lida xaltacha bor. Unda narsalarga oid rasmlar yoki kundalik narsalar, kichik o‘yinchoqlar mavjud. Ilgari juftlarga bo‘lingan bolalar, o‘zlari uchun obyekt yoki rasmni olib chiqishadi. Bir nechta o‘yin ishtirokchilari qulay joyni topadilar va ikkala mavzuni, ba’zida bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan o‘z ichiga olgan qisqa hikoyani taklif qilishadi. Ma’lum vaqtdan so‘ng, bolalar aylanada to‘planishadi va har bir juftlik o‘zlarining hikoyalarini aytib berishadi.

**II mashg‘ulot. O‘zaro muloqotda nizoli vaziyatlar va ziddiyatlarni hal qilish va bartaraf etish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan o‘yinlar.** "O‘yinlar-vaziyatlar" (nizoli vaziyatlarni modellastirish); "Janjal"; "Muammoli vaziyatlarning mazmuni bo‘yicha tadqiqotlar".

### **2.1-mashq. "Tinchlik gilamchasi"**

Maqsad: bolalarni guruhdagi nizolarni hal qilishda muzokaralar va munozaralar strategiyasini o‘rgatish. Guruhda bunday tinchlik gilamchasining mavjudligi bolalarni janjal va tortishuvlardan voz kechishga undaydi, ularning o‘rnini bir-birlari bilan muammolarni muhokama qilish bilan almashtiradi.

### **2.2-mashq. "Shirin muammo"**

Maqsad: bolalarni muzokaralar orqali kichik muammolarni hal qilishga, birgalikda qaror qabul qilishga o‘rgatish, muammolarni o‘z foydasiga tez hal qilishdan voz kechish. Qarama-qarshi o‘tirib, bir-biringizni ko‘zingizga qarang. Oldingizda pechenyelar bor, iltimos, ularga tegmang. Ushbu o‘yinda bitta muammo bor: shirin pechenyeni faqat sherigi ixtiyoriy ravishda rad etadigan va sizga beradigan odamgina olishi mumkin. Bu buzilmasligi kerak bo‘lgan qoida. Endi siz

suhatni boshlashingiz mumkin, lekin sherigingizni roziligisiz shirin pechenyelarni ololmaysiz".

Tarbiyachi: "Mana endi men har bir juftlikka bittadan pechenye beraman. Bu safar ular bilan nima qilishingizni muhokama qiling".

Tarbiyachi bolalarni kuzatadi va bu holda bolalar turli yo'llar bilan harakat qilishlarini ta'kidlaydi.

Muhokama uchun masalalar:

- Bolalar, qaysi biringiz do'stingizga pechene berdingiz? Ayting-chi, o'zingizni qanday his qildingiz?

- Kim u bilan qolishini xohladi? Buning uchun nima qildingiz?

- Biror kishiga xushmuomalalik bilan muloqot qilganda nimani kutmoqdasiz?

- Bitimga kelishish uchun kim eng kam vaqtni oldi?

- Yana qanday qilib o'zaro kelishib olishingiz mumkin?

- Sherigingiz pechenesini berishga rozi bo'lishi uchun qanday dalillar keltirdingiz?

### **2.3-mashq. "Ko'zi ojiz va yo'l boshchi" mashqlari**

Maqsad: aks ettirish qobiliyatini rivojlantirish; boshqa odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishiga to'sqinlik qilishi va osonlashtirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarning fazilatlari va xususiyatlarini anglash.

Yo'riqnoma. Ishtirokchilar juftlarga bo'lingan. Mashq o'tkaziladigan xonada stullar bir-biridan bir yarim metrdan ikki metrgacha masofada joylashgan. Juftlardan biri ko'r bo'lganidek ko'zlarini yumadi, ikkinchisi esa "yo'l boshchiga" aylanadi. Uning vazifasi-sherigini xona bo'ylab joylashtirilgan stullar orasida olib borish.

Ba'zi hollarda, agar mashg'ulotlar o'tkaziladigan xona imkon bersa, siz guruh a'zolarini yo'lakka kirishga, zinapoyadan pastga chiqishga va boshqalarga taklif qilishingiz mumkin. Ishtirokchilar butun yo'lni bosib o'tib, boshlagan joylariga qaytgach, ular rollarni almashtiradilar. Vazifa bajarilgandan so'ng, murabbiy guruhga quyidagi savollarni berishi mumkin: "Jismoniy mashqlar paytida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?", "Ko'zi ojizlar rolda bo'lganingizda va ushbu rolda bo'lganingizdan so'ng o'zingizni qanday his qildingiz?".

**2.4.-Mashq.** O'yin "Ta'rifni bilib oling." Psixolog bolalardan birini tasvirlaydi, qolganlari uning kimligini taxmin qilishadi.

5. Mashg'ulotni muhokama qilish (bolalar fikr almashishadi, nimani ko'proq yoqtirishdi, nima uchun, mashg'ulotdan keyin kayfiyat qanday va boshqalar)

### **III mashg'ulot. "Tabiatdagi xushbo'y hidlar"**

Maqsad: bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirishga yordam berish, samimiy muloqotga o'rgatish, hissiy stressni kamaytirish, hissiy ekspressivlikni, hid sezishlarni rivojlantirish.

Jihozlar: xushbo'y moyli idishlar, qog'oz varaqlar, bo'yoqlar yoki rangli qalamlar. *Tartibi:*

**3.1-Mashq.** "Salomlashish". Ishtirokchilar bir davrada o'tirishadi. Psixolog tirsaklar yordamida salomlashishni taklif qiladi va buni qanday qilishni ko'rsatib beradi. Bolalar qo'l kaftlarini birlashtirib, qo'shnining tirsagiga: "Assalomu alaykum", deb aytadilar. Barcha ishtirokchilarga salomlar aytiladi.

**3.2-Mashq.** O‘yin: "Xushbo‘y hidni toping." Ishtirokchilar stullarda aylana shaklida o‘tirishadi, qo‘llarini oldinga cho‘zishadi va psixolog har bir ishtirokchining bilagiga xushbo‘y moy surtadi. Psixolog bolalarni chiroyli gullar va mevalar o‘sadigan issiqxonada ekanliklarini tasavvur qilishga taklif qiladi. Keyin bolalarni o‘simlik (meva, gul)ni hidlash va bu qaysi hidga o‘xshashligini taxmin qilish taklif etiladi. Bundan tashqari, bolalar bir-birlarining xushbo‘y hidi va taassurotlari bilan o‘rtoqlashishlari uchun taklif etiladi.

**3.3-Mashq.** O‘yin: "Bir-biringizni gullar, mevalar, sabzavotlar nomi bilan chaqiring". Psixolog bolalardan eslab qolishni, turli vaziyatlarda bir-biriga qanday murojaat qilishni, nima uchun ba’zida hazil ishlatishni taklif qiladi. Bundan tashqari, ishtirokchilar yerga bir doira ichida o‘tirishga, o‘z navbatida, bir-birlarini gullar, meva va sabzavotlar nomi bilan chaqirishga taklif qilinadi. Qizlarga gullar va mevalar, o‘g‘il bolalarga esa sabzavotlar nomi berilishiga e’tibor berish lozim. Misol uchun: - Odina, sen atirgulsan,

- Sardor sen jo‘xori ekansan,
- Javlon sen pomidorsan,
- Diyorbek, sen karamsan.

O‘yin imo-ishoralar, intonasiya, tovush balandligini o‘zgartirib, sekin-ohista, mayin, yumshoq, baland ovoz bilan, pichirlash va hokazolar yordamida murakkablashadi.

**3.4-Mashq.** Bolalarga qog‘oz va qalamlar (bo‘yoqlar) beriladi, ularga sevimli gullarini chizish va u qanday hidlanishini tasavvur qilish taklif etiladi. Keyin bolalar qanday gulni bo‘yashganini va nima uchun uni yoqtirishlarini aytadilar.

Mashg‘ulotni muhokama qilish (nimaga ko‘proq yoqdi, nima uchun, kayfiyat yaxshilandimi va hokazo)

Biz tadqiqotimizda Varga-Stolinning "Ota-ona munosabati" testi va bolalarning muloqotchanligi orasidagi korrelyasion bog‘lanishlar aniqlandi, olingan natijalar quyidagi 2-jadvalda umumlashtirildi.

Quyidagi jadvalda ota-onaning rad etish munosabati bilan bolaning tashabbuskorligi orasida manfiy bog‘lanish aniqlangan ( $r = -0,24$ ;  $r < 0,5$ ). Ota-ona farzandini qanchalik ko‘p rad etsa, bolada tashabbuskorlik shuncha past bo‘ladi. Ota-onasi uning farzandi yomon, yaroqsiz, muvaffaqiyatsiz deb idrok etadi. Aftidan, bola past qobiliyat, kichik aql, yomon moyillik tufayli hayotda muvaffaqiyat qozonmaydi. Ko‘pincha ota-ona darg‘azab, agressiv, haqoratga duch keladi. U bolaga ishonmaydi va uni hurmat qilmaydi.

**1-jadval**

**Ota-onalar munosabati va muloqotchanlik orasidagi korrelyasion bog‘lanishlar**

|      | R.e   | Ham.    | Sim    | Avto   | Inf | O‘z.qiz | Tash | Ta’s | Ijt har | Mul vos. | Faol n. |
|------|-------|---------|--------|--------|-----|---------|------|------|---------|----------|---------|
| R.e  | 1     |         |        |        |     |         |      |      |         |          |         |
| Ham. | 0,04  | 1       |        |        |     |         |      |      |         |          |         |
| Sim  | -0,07 | 0,03    | 1      |        |     |         |      |      |         |          |         |
| Avto | -0,02 | 0,15    | 0,07   | 1      |     |         |      |      |         |          |         |
| Inf  | 0,04  | -0,56** | 0,64** | 0,75** | 1   |         |      |      |         |          |         |

|           |         |       |        |        |       |       |        |       |      |        |   |
|-----------|---------|-------|--------|--------|-------|-------|--------|-------|------|--------|---|
| O'z.q     | -0,04   | 0,13  | 0,17   | 0,13   | 0,03  | 1     |        |       |      |        |   |
| Tash      | -0,24*  | -0,03 | -0,22* | -0,24* | -0,13 | 0,22* | 1      |       |      |        |   |
| Ta's      | 0,15    | -0,10 | -0,18  | -0,12  | -0,06 | 0,006 | 0,09   | 1     |      |        |   |
| Ijt har.  | 0,04    | -0,11 | -0,14  | -0,18  | -0,07 | 0,14  | 0,17   | -0,16 | 1    |        |   |
| Mul vos.  | 0,16    | -0,08 | -0,18  | -0,19  | -0,17 | -0,16 | 0,38** | 0,05  | 0,07 | 1      |   |
| Faol nutq | -0,76** | -0,15 | -0,20  | -0,23* | -0,17 | -0,18 | 0,07   | 0,36* | 0,08 | 0,81** | 1 |

Izoh: \*\* -  $r < 0,01$ ; \* -  $r < 0,5$

R.e. - rad etish; Ham. – hamkorlik; Sim.- simbioz

Avto.- avtoritar gipersosializasiya; Inf.- infantilizm

O'z.q. – o'zaro qiziqish; Tash. – tashabbuskorlik

Ta's. – ta'sirchanlik; Ij. har. – ijtimoiy harakatlar

Mul.vos.- muloqot vositalari; Faol n.- faol nutq

Ota-onaning rad etish munosabati bilan bolaning faol nutqi orasida manfiy bog'lanish aniqlangan ( $r = -0,76$ ;  $r < 0,01$ ). Ota-ona farzandini qanchalik ko'p rad etsa, bolada faol nutq shuncha oz shakllanadi.

Ota-onaning hamkorlik va infantilizm munosabatlari orasida ham manfiy bog'lanish aniqlangan ( $r = -0,56$ ;  $r < 0,01$ ). Ota-ona farzandiga qanchalik ko'p hamkorlik munosabatida farzandda infantilizm shunchalik kam bo'ladi. Ota-ona bolaga hamma narsada yordam berishga harakat qilib, bolaga yordam berishga urinadi, unga hamdardlik bildiradi. Ota-ona bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini qadrlaydi, farzandi bilan faxrlanadi. U bolaning tashabbusi va mustaqilligini qo'llab-quvvatlaydi, u bilan birga bo'lishga harakat qiladi. Ota-ona bolaga ishonadi, qarama-qarshi masalalarda o'z nuqtai nazaridan turishga harakat qiladi.

Ota-onaning simbiotik munosabati va infantilizm orasida musbat bog'lanish aniqlangan ( $r = 0,64$ ;  $r < 0,01$ ). Ota-ona farzandiga qanchalik ko'p simbiotik munosabatda bo'lsa, bolada infantilizm ham shunchalik kuchli bo'ladi. Ota-ona doimiy ravishda bola uchun xavotirni his qiladi, bola unga juda kichik va himoyasiz ko'rinadi. Ota-ona bolaga hyech qachon mustaqillik bermaydi, bola vaziyat tufayli avtonomiyaga duch kelganda, ota-onaning xavotiri yanada kuchayadi.

Ota-onaning simbiotik munosabati va farzandning tashabbuskorligi orasida manfiy bog'lanish aniqlangan ( $r = -0,22$ ;  $r < 0,5$ ). Ota-ona farzandiga qanchalik ko'p simbiotik munosabatda bo'lsa, bolada tashabbuskorlik ham shunchalik quyi bo'ladi.

Ota-onaning avtoritar va infantilizm munosabati orasida musbat bog'lanish aniqlangan ( $r = 0,75$ ;  $r < 0,01$ ). Ota-ona farzandiga qanchalik ko'p avtoritar munosabatda bo'lsa, bolada infantilizm ham shunchalik kuchli bo'ladi. Ota-ona bolaning so'zsiz itoatkorligi va intizomini talab qiladi. U o'z xohish-irodasiga qarshi turolmay, bolasini qattiq nazorat qiladi. Bolaning quloq solmagani uchun bola qattiq jazolanadi. Ota-ona bolaning ijtimoiy yutuqlarini, uning individual xususiyatlari, odatlari, fikrlari, his-tuyg'ularini nazorat qiladi.

Ota-onaning avtoritar munosabati va farzandning tashabbuskorligi orasida manfiy bog‘lanish aniqlangan ( $r=-0,24$ ;  $r < 0,5$ ). Ota-ona bolasiga qanchalik qattiqqo‘llik qilsa, farzandda ham tashabbuskorlik so‘nadi. Ota-onaning avtoritar munosabati va farzandning faol nutqi orasida manfiy bog‘lanish aniqlangan ( $r=-0,23$ ;  $r < 0,5$ ). Ota-onaning qatq qo‘lligi farzandda faol nutqning, egosentrik nutqning shakllanishiga salbiy ta‘sir qilar ekan.

Bolaning o‘zaro qiziqishi va tashabbuskorlik orasida musbat bog‘lanish aniqlangan ( $r=0,22$ ;  $r < 0,5$ ). Bola tengdoshlariga qanchalik ko‘p qiziqsa, unda tashabbuskorlik, tengdoshi bilan muloqotga kirishishda tashabbuskorlik namoyon bo‘ladi.

Tashabbuskorlik va muloqot vositalari orasida musbat bog‘lanish aniqlangan ( $r=0,38$ ;  $r < 0,01$ ). Bola tengdoshlariga qanchalik ko‘p tashabbuskor bo‘lsa, tengdoshi bilan muloqotga ko‘p kirishadi.

Ta‘sirchanlik va faol nutq orasida musbat bog‘lanish aniqlangan ( $r=0,36$ ;  $r < 0,01$ ). Bolada faol nutq qanchalik kuchli rivojlangan bo‘lsa, u boshqalarga shunchalik kuchli ta‘sir qila oladi.

Muloqot vositalari va faol nutq orasida musbat bog‘lanish aniqlangan ( $r=0,81$ ;  $r < 0,01$ ). Bolada faol nutq qanchalik kuchli rivojlangan bo‘lsa, unda muloqot vositalari kuchli shakllanadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalaridan aniqlanishicha, ota-onaning farzandiga munosabati unda muloqotchanlikning rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligi aniqlandi. Tadqiqotning rivojlantiruvchi bosqichida psixolog olimlardan V.I.Garbuzov [3], T.A.Dumitrashku[4], A.S.Prutchenkov [5], V.M.Slutskiy [6], N.V.Szen va Yu.V.Paxomovlar [7] tomonidan tavsiya qilingan va milliy muhitga moslashtirilgan “Muloqot” treningidan foydalanildi.

Psixologik treningdan oldin ikkala guruhning ham o‘z atrofida-gilarga nisbatan “Shaxslararo munosabatni aniqlash” testi bo‘yicha olingan natijalari metodikaning uchinchi ustuniga, teng kelgan bo‘lsa, psixologik treningdan keyingi kuzatilgan natijalar esa, ikkala guruhda ham o‘rtacha, ya‘ni me‘yoriy darajaga to‘g‘ri kelib qolganligi bilan namoyon bo‘ldi. Olingan natijalardan shuni ta‘kidlash joizki, demak, ota-onalar va tarbiyachilarning muloqotchanlik sifatlarini ijobiy shakllantirish va rivojlantirishda psixologik treningning o‘rni katta ahamiyatga ega ekanligi ayon bo‘ladi.

Tajribamizning oldingi bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalar munosabat subyektii sifatida shakllanishiga ota-onaning, oilaning boshqa a‘zolari va tarbiyachilarning o‘rni mavjud ekanligini ularning munosabati bo‘yicha tahlil qilgan edik. Shunday bo‘lsa-da, ammo ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalar bilan munosabatlarini maromida kechishida kattalar tajribalari va kamoloti muhimdir.

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, aniqlovchi tajribalarda 3-4 yoshli bolalarda o‘zaro qiziqish shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymat 0,7 ga, nazorat tajribalarida bu ko‘rsatkich 1,8 ga ortgan ( $t=2,88$ ;  $p<0,5$ ). 5-6 yoshli bolalarda esa aniqlovchi tajribalarda o‘zaro qiziqish shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymat 1,9 ga teng bo‘lsa, nazorat tajribalarida bu ko‘rsatkich 2,98 ga ortgan ( $t=2,72$ ;  $p<0,5$ ).

## Maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlari bilan muloqotning dinamikasi

| Yosh bosqichlari | O'zaro qiziqish | Tashabbus | Ta'sirchanlik | Ijtimoiy xatti-harakatlar | Muloqot vositalari | Faol nutq |
|------------------|-----------------|-----------|---------------|---------------------------|--------------------|-----------|
| 3-4 yosh A.T     | 0,7             | 0,9       | 0,8           | 0,6                       | 1,2                | 1,5       |
| 3-4 yosh N.T.    | 1,8             | 1,7       | 1,6           | 1,8                       | 1,8                | 1,9       |
| t                | 2,88*           | 2,99*     | 1,92          | 2,99*                     | 1,78               | 1,57      |
| 5-6 yosh A.T     | 1,9             | 2,1       | 1,8           | 2,2                       | 1,8                | 2,5       |
| 5-6 yosh N.T.    | 2,98            | 2,86      | 2,9           | 2,9                       | 2,9                | 2,9       |
| t                | 2,72*           | 1,79      | 2,88*         | 1,79                      | 2,88*              | 1,38      |

Izoh: \* -  $p < 0,5$ ; \*\* -  $p < 0,01$

3-4 yoshli bolalar bola tengdoshiga e'tibor beradi, uning harakatlarini qiziqish bilan kuzatadi. 5-6 yoshli bolalar esa lekin uzoqdan yaqinlashishga jur'at etmaydi, masofani yopadi (passiv holat). Bola darhol tengdoshini sezadi, unga yaqinlashadi, diqqat bilan tekshirishni boshlaydi, teginadi, vokal, nutq bilan uning harakatlarini kuzatadi, tengdoshiga bo'lgan qiziqishini uzoq vaqt yo'qotmaydi, chalg'itmaydi.


Tashabbus shkalasi bo'yicha 3-4 yoshli bolalarda aniqlovchi tajribalarda o'rta arifmetik qiymat 0,9 ga, nazorat tajribalarida 1,7 ga ortgan ( $t=2,99$ ;  $p < 0,5$ ). 5-6 yoshli bolalarda esa aniqlovchi tajribalarda o'rta arifmetik qiymat 2,1 ga teng, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 2,86 ga ortgan ( $t=1,79$ ;  $p$  - ahamiyatsiz). 3-4 yoshli bolalar tashabbuskorlikni namoyon qiladi, lekin har doim ham emas, noaniq harakat qiladi, tengdoshga faol murojaat qilish qat'iy emas, tengdoshning ko'ziga qarab, tabassum qiladi. 5-6 yoshli bolalar doimo muloqotda tashabbuskorlikni namoyon etadi, ko'pincha tengdoshining ko'ziga qaraydi, unga tabassum bilan murojaat qiladi, uning imkoniyatlarini namoyish etadi, tengdoshini birgalikdagi harakatlarga jalb qilishga harakat qiladi, muloqotda qat'iylikni namoyon etadi.

Ta'sirchanlik shkalasi bo'yicha 3-4 yoshli bolalarda aniqlovchi tajribalarda o'rta arifmetik qiymat 0,8 ga, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 1,6 ga ortgan ( $t=1,92$ ;  $p$  - ahamiyatsiz). 5-6 yoshli bolalarda esa bolalarda aniqlovchi tajribalarda o'rta arifmetik qiymat 1,8 ga teng, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 2,9 ga ortgan ( $t=2,88$ ;  $p < 0,5$ ). 3-4 yoshli bolalar tengdoshining tashabbusiga javob beradi, o'zaro ta'sirga intiladi, ba'zan tengdoshining harakatlariga moslashishga intiladi. 5-6 yoshli bola tengdoshining barcha tashabbuskor harakatlariga tezda javob beradi, ularni faol ravishda ko'taradi, o'z harakatlarini tengdoshining harakatlari bilan muvofiqlashtiradi, uning harakatlariga taqlid qiladi.

Ijtimoiy xatti-harakatlar shkalasi bo'yicha 3-4 yoshli bolalarda aniqlovchi tajribalarda o'rta arifmetik qiymat 0,6 ga, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 1,8 ga

ortgan ( $t=2,99$ ;  $p<0,5$ ). 5-6 yoshli bolalarda esa aniqlovchi tajribalarda o'рта arifmetik qiymat 2,2 ga teng, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 2,9 ga ortgan ( $t=1,79$ ;  $p$  - ahamiyatsiz). 3-4 yoshli bolalar esa tengdoshi bilan o'ynashga rozi bo'ladi, ba'zida u tashabbusni o'zi oladi, lekin hamma hollarda ham emas, ba'zida o'yinchoqlarni baham ko'radi, ularga taslim bo'ladi, birgalikda biror narsa qilish taklifiga javob beradi, tengdoshiga halaqit bermaydi. 5-6 yoshli bolalar birgalikda harakat qilishni istaydi, u tengdoshiga o'yinchoqlar taklif qiladi, uning istaklarini inobatga oladi, biror narsada yordam beradi, nizolardan qochishga intiladi.

Muloqot vositalari shkalasi bo'yicha 3-4 yoshli bolalarda aniqlovchi tajribalarda o'рта arifmetik qiymat 1,2 ga, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 1,8 ga ortgan ( $t=1,78$ ;  $p$  - ahamiyatsiz). 5-6 yoshli bolalarda esa aniqlovchi tajribalarda o'рта arifmetik qiymat 1,8 ga teng, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 2,9 ga ortgan ( $t=2,88$ ;  $p<0,5$ ). 3-4 yoshli bolalarning yuz ifodalari asosan xotirjam, agar imoishoralardan foydalansa, u holda o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, lekin tengdoshning chaqiriqlariga javob beradi. 5-6 yoshli bolalartez-tez tengdoshiga qaraydi, uning tengdoshiga qaratilgan harakatlari hissiy rangga ega, o'zini juda erkin tutadi, tengdoshiga xatti-harakatlari bilan zarar etkazadi (bolalar birgalikda sakrab, qichqiradi, kuladi), mimika jonli, yorqin, juda hissiyotli salbiy his-tuyg'ular, doimo o'zingizga tengdoshingizning e'tiborini jalb qiladi. Aniqlovchi va nazorat tajribalaridagi o'zgarishlarni, biz o'tkazgan mashg'ulotlarning maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlik darajasi shakllanishiga qay darajada ta'sir qilganligi haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi gistogrammani hosil qildik.



**1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlik darajasi shakllanishi dinamikasi.**

Faol nutq shkalasi bo'yicha 3-4 yoshli bolalarda aniqlovchi tajribalarda o'рта arifmetik qiymat 1,5 ga, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 1,9 ga ortgan ( $t=1,57$ ;  $p$  - ahamiyatsiz). 5-6 yoshli bolalarda aniqlovchi tajribalarda o'рта arifmetik qiymat 2,5 ga teng, nazorat tajribalarida bu ko'rsatkich 2,9 ga ortgan ( $t=1,38$ ;  $p$  - ahamiyatsiz). 3-4 yoshli bolalarda - bitta so'zni talaffuz qilish kuzatilsa, 5-6 yoshli bolalarda turli iboralar, takliflar berishini kuzatish mumkin.

### **Xulosa va tavsiyalar**

3 yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (huquqi bo'lgan), ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. «Men katta bo'lsam mashina haydayman», «Men sizga katta tort olib kelaman», «Mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi» kabi xohishlarini o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham o'zining barcha xohishlarini shu bugun amalga oshirishga harakat qiladi. Ko'pincha bunday xislat qat'iylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan kattalarga bildirilgan salbiy xatti-harakat bo'ladi. Bola o'zini mustaqil harakat kila olishini anglagan vaqtdan boshlab, unda «o'zim kilaman» boshlanadi va bu yana qaysarlik va o'jarlik tarzida ko'rinadi.

Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolada o'ziga nisbatan munosabat ota-ona bilan muloqoti ta'siri ostida shakllanishi isbotlandi, ya'ni, bolalardan olingan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, ulardagi aksariyat belgi va xislatlar avvalo onasining ta'sirida shakllanadi. Bu yoshda o'zini baholashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yagona omil bu – ota-ona, xususan, onaning farzandiga bo'lgan munosabatining yaxshi emasligidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va ota-onalar qabul qilishdan ko'ra, ulardan begonalashish, o'zini olib qochish turining ustun ekanligi bilan xarakterlanadi. Ota-onalar va tarbiyachilarning muloqotmandlik xususiyatlarini shakllanganligining treninggacha bo'lgan bosqichdagi natijalarida ham ahamiyatli korrelyasiya ko'rsatkichlari kuzatilmadi.

Bolalarda muloqotga kirishimlilik qobiliyatining o'sib borishi bilan ularning egosentrik yo'nalishdagi munosabatlari pasayishiga sabab bo'lar ekan. Bu esa ota-onalarning turmushda shakllantirilmagan va anglab yetilmagan muloqotchanlik xususiyatlari, o'zga insonlarning kechinmalarini tushunadigan va baholay oladigan shaxslar toifasiga aylanishlariga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda ota-onalar va tarbiyachilar o'zlarida egosentrik, avtoritar yo'nalishli munosabatlarni cheklashi ularda xayrixohlik munosabatining paydo bo'lishiga sabab bo'lishi va natijada aynan maktabgacha yosh davridagi bolada faol muloqotni, tashabbuskorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishga erishiladi.

Tadqiqot ishi natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi **tavsiyalarni** keltirib o'tishni lozim topdik:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotchanlikka o'rgatish orqali shaxs sifatlarini rivojlantiruvchi korreksion dasturlar ishlab chiqish va undan pedagog hamda ota-onalarning keng foydalanishlarini joriy etish.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi va bolalar muloqotini samarali tashkil etishga qaratilgan trening kurslarini yo'lga qo'yish.

3. Oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqot madaniyatiga o'rgatish bo'yicha kattalar va ota-onalar uchun psixologik trening-mashqlar kursini tashkil etish. (Kelin-kuyovlar o'quv kurslari hamda ota-onalar universitetlari orqali).

4. Maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida "Muloqot psixologiyasi" tanlov fani sifatida o'qitilishini yo'lga qo'yish.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda tarbiyachi o'zining odatiy jamoaviy avtoritar usulidan voz kechib, bolalarning har biri bilan hamkorlik va xayrixohlik munosabatini yo'lga qo'yishni ta'minlashga erishish.

6. Psixologik bilimlarga ko'ra, ruhiy rivojlanish hamda o'ziga xos individual xususiyatlarning shakllanishi bola hayotining dastlabki sakkiz yili mobaynida sodir

bo‘lishidan kelib chiqib, ota-onalar va tarbiyachilar aynan shu yosh davrida bolalarni shaxs sifatida shakllantirishga, xususan, bolada faol muloqotni, tashabbuskorlik va kreativlik ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga erishish orqali “Faol-pozitiv bola” shaxsini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratishlari lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [www.president.uz.29/12/](http://www.president.uz.29/12/) 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi /<http://uza.uz/> 30.09.2020
3. Гарбузов В. Практическая психотерапия, или как вернуть ребёнку уверенность в себе, истинное достоинство и здоровье. –СПб.: Питер, 1994.– 160 с.
4. Думитрашку Т.А. Влияние внутрисемейных факторов на формирование индивидуальности //Вопросы психологии. 1991. № 1.С.24-28.
5. Прутченков А.С. Тренинг личностного роста. -М.Педагогика, 1998. -125 с.
6. Слуцкий В.М. Психологические методы коррекции личности ребенка. //Вопросы психологии. 2001. № 3. 141-145 с.
7. Сзен Н. В., Пахомов Ю. В. Психотренинг: игры и упражнения — Изд. 2-е, доп. — М.: Независимая фирма “Класс”, 1999. — 272с.
8. Shamsiyev O‘.B. Oilada maktabgacha yoshdagi bola shaxsi o‘zini-o‘zi anglashining ijtimoiy-psixologik omillari. Ps.fan.nom...avtoref. T. O‘zMU. 2010.-24 b.
9. Норбошева М.О. Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. Наука и образование сегодня, 66-67
10. Норбошева М.О. Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулоқотнинг ўрни . Педагогика ва психологияда инновациялар 9 (3), 7
11. Норбошева М.О. Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулоқотнинг ўрни.Педагогика ва психологияда инновациялар 9 (3), 7
12. Норбошева М.О. Мулоқотга ўргатиш бола шахсини шакллантиришнинг ўзига хос шакли сифатида. Инновации в педагогике и психологии 5 (4)
13. Norbosheva M.A. Problems of personal formation of the child in the family in the studies of scientists of Uzbekistan. Asian Journal Of Multidimensional Research 10 (6), 297-303.
14. Norbosheva M. Features of socio-psychological development of a preschool child as a subject of communication. EMERJENT: journal of educational discoveries and Lifelong Learning 3 (№ 12)
15. Норбошева М.А.Мактабгача ёшдаги боланинг мулоқот субъекти сифатида ижтимоий-психологик ривожланиш хусусиятлари. Психол. фан. бўй. фалс. доктори (PhD) дисс. автореф. УДК:159.922.7- 053.4:316.77. <http://library.ziyounet.uz/uz/book/124233>